

INKLYUZIV TA’LIM VA REABILITATSIYA JARAYONLARINI INTEGRATIV BOSHQARISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY IMKONIYATLAR

Gulnoza Omanova

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18975485>

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim va rehabilitatsiya jarayonlarini integrativ yondashuv asosida boshqarishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning umumiy ta’lim muhitiga to‘laqonli integratsiyasini ta’minlovchi kompleks pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Ta’lim va rehabilitatsiya xizmatlarining uzviyligi, multidisiplinar hamkorlik, individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va monitoring mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim; rehabilitatsiya; integrativ boshqaruv; multidisiplinar hamkorlik; individual ta’lim dasturi; strategik menejment; ijtimoiy integratsiya; barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические основы и практические возможности управления процессами инклюзивного образования и реабилитации на основе интегративного подхода. Инклюзивное образование рассматривается как комплексная педагогическая система, обеспечивающая полноценную интеграцию детей с особыми образовательными потребностями в общую образовательную среду. Освещаются вопросы взаимосвязанности образовательных и реабилитационных услуг, междисциплинарного взаимодействия, разработки индивидуальных образовательных программ и внедрения механизмов мониторинга.

Ключевые слова: инклюзивное образование; реабилитация; интегративное управление; междисциплинарное сотрудничество; индивидуальная образовательная программа; стратегический менеджмент; социальная интеграция; устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations as well as the practical opportunities for managing inclusive education and rehabilitation processes based on an integrative approach. Inclusive education is interpreted as a comprehensive pedagogical system that ensures the full integration of children with special educational needs into the general educational environment. The study highlights the interconnection of educational and rehabilitation services, multidisciplinary cooperation, the development of individual education programs, and the implementation of monitoring mechanisms.

Keywords: inclusive education; rehabilitation; integrative management; multidisciplinary cooperation; individual education program; strategic management; social integration; sustainable development.

Inklyuziv ta’lim zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning jamiyatga va ta’lim tizimiga to‘laqonli integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan. Zamonaviy konsepsiyalarda inklyuziv ta’lim ijtimoiy-model va huquqiy yondashuvlar asosida talqin etilib, muhitni moslashtirish, xizmatlarni integratsiyalash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki rehabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini ham qamrab oladi. Shu bois inklyuziv ta’lim va rehabilitatsiya tizimlarini alohida emas, balki yagona strategik model asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Rehabilitatsiya jarayoni inklyuziv ta’limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning jismoniy, psixologik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlarda rehabilitatsiya faqat tibbiy xizmat bilan cheklanmay, pedagogik, psixologik va ijtimoiy xizmatlar integratsiyasiga asoslanadi. Inklyuziv ta’lim va rehabilitatsiya tizimlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularni samarali tashkil etish ko‘p tarmoqli yondashuvni talab etadi. Bunda ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar va oila institutlari o‘rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlari shakllantirilishi zarur. Ta’lim va rehabilitatsiya jarayonlarini alohida tashkil etish kutilgan samarani bermaydi. Ta’lim jarayonida kognitiv rivojlanish

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

ta’minlansa, reabilitatsiya funksional va ijtimoiy imkoniyatlarni mustahkamlaydi. Shu sababli boshqaruv tizimi ushbu ikki jarayonni yagona strategiya doirasida muvofiqlashtirishi lozim [1,2].

Integrativ yondashuv quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

- tizimli yondashuv;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi;
- multidisiplinar va transdisiplinar yondashuvlar;
- barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

Mazkur yondashuvlar inklyuziv muassasani murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba inklyuziv ta’lim samaradorligi mustahkam me’yoriy-huquqiy baza va tizimli boshqaruvga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Avstriya, Norvegiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda inklyuziv ta’lim davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirilmoqda. Aksincha, ayrim davlatlarda segregatsiya elementlari saqlanib qolgan [4].

Inklyuziv ta’lim muassasalarida pedagog, defektolog, logoped, psixolog, tibbiy va ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritadi. Ularning samarali hamkorligini ta’minlash boshqaruvning asosiy vazifasidir. Bizning fikrimizcha, bunday sharoitlarda integrativ boshqaruv quyidagilarni nazarda tutadi:

- *strategik rejalashtirish;*
- *resurslarni oqilona taqsimlash;*
- *individual ta’lim va reabilitatsiya dasturlarini muvofiqlashtirish;*
 - *muntazam monitoring va baholash;*
 - *manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik.*

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafavut inklyuzivlik samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarni jarayonga jalb etish, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda doimiy monitoring tizimini joriy etish inklyuziv boshqaruvning muhim elementidir. Bolalar ko‘p tarmoqli ta’lim va reabilitatsiya muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda:

- har bir bola uchun individual reja ishlab chiqiladi;
- multidisiplinar konsiliumlar o‘tkaziladi;
- muntazam monitoring yo‘lga qo‘yiladi.

Inklyuziv ta’lim va reabilitatsiya jarayonlarini integrativ boshqarish zamonaviy ta’lim tizimining muhim talabi hisoblanadi. Empirik ma’lumotlar integrativ yondashuv joriy etilgan muassasalarda bolalarning moslashuv darajasi oshganini, ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanganini va ota-onalar qoniqishi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ta’lim va reabilitatsiya xizmatlarini uyg‘unlashtirish, multidisiplinar jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Bizning fikrimizcha, bolalar ko‘p tarmoqli ta’lim va reabilitatsiya muassasalarida integrativ boshqaruv modeli:

- xizmatlar sifatini oshiradi;
- innovatsiyalarni joriy etishga imkon beradi;
- monitoring va teskari aloqani kuchaytiradi;
- muassasaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu bois inklyuziv ta’lim va reabilitatsiya muassasalarida integrativ boshqaruv modelini joriy etish va takomillashtirish strategik ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim [3].

Inklyuziv muhitning samaradorligini oshirish uchun turli subyektlarning faol ishtiroki talab etiladi. Bu subyektlarga quyidagilar kiradi:

- ta’lim oluvchilar – reabilitatsiya va nutq terapiyasi, ijtimoiy terapiya va ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi boshqa faoliyatlarda qatnashadi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy, akademik va psixologik rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan;
- ota-onalar – ular bilan hamkorlik dasturlari orqali bolalarning ta’lim va reabilitatsiya jarayonidagi qiyinchiliklarini aniqlash va moslashtirilgan yondashuvlarni joriy etish mumkin;
- pedagoglar va mutaxassislar – imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim va reabilitatsiya jarayonida ularning bilim va malakalariga tayanish orqali sifatli ta’limni ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

Sifatli ta’lim va reabilitatsiyani ta’minlashda ko‘p tarmoqli ta’lim va reabilitatsiya muassasalarida zamonaviy menejment usullarini qo‘llash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini maxsus pedagogika va psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari asosida tashkil

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

etish, nazariy va amaliy masalalarni hal etishda xorijiy tajribani o‘rganish talab etiladi. Tajriba almashish, muammolarni hal qilishning original usullarini taqdim etish, ta‘lim jarayonini amalga oshirishning zamonaviy usullarini loyihalash dolzarb masala hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘lim va reabilitatsiya jarayonlarining samaradorligi ko‘p jihatdan manfaatdor tomonlar — ota-onalar, mahalliy hamjamiyat, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikka bog‘liq. Integrativ yondashuv ushbu hamkorlikni tizimli ravishda boshqarishni talab etadi.

Ota-onalarni ta‘lim va reabilitatsiya jarayonlariga faol jalb etish, ular bilan muntazam muloqot olib borish bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklik inklyuziv muassasaning resurs bazasini kengaytirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Integrativ yondashuv inklyuziv ta‘lim va reabilitatsiya muassasasining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bunda resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuvga ko‘ra, bola markaziy subyekt sifatida qaraladi. Uning atrofida pedagogik, psixologik, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar joylashib, ular rahbariyat tomonidan muvofiqlashtiriladi. Monitoring va baholash mexanizmlari barcha bosqichlarni qamrab olgan holda doimiy teskari aloqani ta‘minlaydi.

Yangi O‘zbekistonda ta‘lim va reabilitatsiya xizmatlarini birgalikda taqdim etuvchi ko‘p tarmoqli muassasalar rivojlanishida innovatsion texnologiya va metodikalarni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar shakllanayotgan muhim maydon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu yondashuvlar rivojlanishida o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bolalarni ta‘lim makoniga chuqur integratsiya qilishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Mazkur konseptual qarashlarning amaliy ifodasi sifatida muhim gumanitar loyiha — reabilitatsiya markazlariga ega «Imkon» ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari tarmog‘ini tashkil etish tashabbusi amalga oshirildi.

Mazkur ixtisoslashtirilgan ta‘lim tashkilotlari Nukus, Qarshi va Zarafshon shaharlarida hamda Qibray tumanida faoliyat yuritmoqda. “Imkon” markazlari faoliyatining asosiy maqsadi maktabgacha va maktab yoshidagi, alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega, rivojlanishida nuqsonlari yoki nogironligi mavjud bo‘lgan bolalar uchun ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks reabilitatsiya va qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishdan iboratdir. Ushbu tizim reabilitatsiya, ta‘lim hamda ijtimoiy-rivojlantiruvchi yordamni o‘z ichiga olgan holda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan [5].

“Imkon” samarali reabilitatsiya-ta‘lim xizmatlarini taqdim etuvchi integrativ inklyuziv muhit sifatida ixtisoslashtirilgan tibbiy-pedagogik tizim bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- sog‘lomlashtiruvchi-reabilitatsiya komponenti —reabilitatsiya faoliyatini amalga oshirish hamda tibbiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashni nazarda tutadi;
- ta‘lim-tarbiyaviy bloki - asosiy ta‘lim dasturlari bilan uzviy bog‘langan o‘quv dasturlarini yaratish va amalga oshirish; qo‘shimcha ta‘lim uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish; bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish tadbirlarini o‘tkazish va boshqalar;
- ijtimoiy-moslashuv bloki - maxsus ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalarda kichik va katta jamoalarga tez moslashishni ta‘minlovchi qobiliyatlarni shakllantirish, ijtimoiy kompensatorlik qobiliyatlarini rivojlantirish (zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega) va boshqa yo‘nalishlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, integrativ muhitni shakllantirish jarayoni yangi tashkiliy-pedagogik sharoitlarni joriy etishni talab etishini ta‘kidlash lozim. Bu borada ta‘limiy, ijtimoiy va reabilitatsiya imkoniyatlarni prognozlash, individual yondashuv va kommunikativ strategiyani tanlash, mavjud kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ichki axborot almashinuvi va tashqi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, inklyuziv muhitni rivojlantirish istiqbollarini belgilash, ta‘lim va reabilitatsiya resurslarini shakllantirish, shuningdek ta‘lim va reabilitatsiya faoliyati natijadorligini nazorat va monitoring qilish zarur.

Ta‘kidlash joizki, “Imkon” markazlari integrativ inklyuziv ta‘lim muhitini amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etishning samarali innovatsion namunasi. Ular multidisiplinar yondashuv, individual ta‘lim yo‘nalishlari, neyropsixologik qo‘llab-quvvatlash va reabilitatsion hamda ta‘lim texnologiyalarining variativligi orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Bunday muhit bolalarning nafaqat jismoniy va psixologik holatini tiklashga, balki ularning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga, barqaror hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim va reabilitatsiya jarayonlarini boshqarishda integrativ yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining muhim talabi hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim va reabilitatsiya xizmatlarini uyg‘unlashtirish, ko‘p tarmoqli jamoa faoliyatini samarali boshqarish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bajrami, V. (2019). Inclusive Education in Multicultural Environments in Europe and the Balkans. *Journal of Awareness*, 4(4), 455–466.
2. Tetiana Vakaliuk, Inesa Novitska, Igor Verbovsky, Tetiana Rozhnova and Valerii Kontsedailo (2021) Management of educational institutions with inclusive education based on innovative technologies // SHS Web of Conferences 104, 03008 (2021) <https://doi.org/10.1051/shsconf/202110403008>
3. Turnbull, M., & et al. (2010). Effective collaboration and multidisciplinary teamwork for special education and family centered services. 2010.
4. UNESCO. Monitoring and Evaluation of Inclusive Education Programs. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 98 p.
5. Оманова Г.А. (2025). Реализация организационно-педагогических условий интегративной инклюзивной образовательной среды: из опыта Центра “Имкон” (Республика Узбекистан) // Письма в Эмиссия. Оффлайн: электронный научный журнал. №8.
6. S.N.Xoshimov. Talabalar o‘rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirishning amaldagi pedagogik mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlash. *Inter education&Global study Ilmiy nazariy va metodik jurnali*. 2024-yil 6-son;
7. S.N.Xoshimov. New stages of studying the views and problems of students in doing scientific research. *International Journal Of History And Political Sciences*. 2024-yil 7-son.
8. Zukhra K Ismailova, Dustnazar O Khimmataliev, Masuda K Khashimova, Mukhayo K Baybaeva, Bobirjon B Ergashev. Integrative approach to designing the content of secondary specialized vocational education. *Opción*, Año 36, Regular No.91 (2020): 25-41. ISSN 1012-1587/ISSNe: 2477-9385
9. Zuxra Ismailova, B. Ergashev. New information and communication technologies in education system. *E3S Web of Conferences* 135, 04077 (2019). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>.